

6-sinf. Ona tili. 3-BSB. 2-chorak (50 ball)

TASVIRIY MATN YARATISH

Qamrab olingan mavzular (taqvim mavzu reja asosida):

1. Nutq uslubi. Badiiy uslub. Tasviriyl ifoda.
2. So'zlashuv nutqi. Tasviriyl matn. Iboralar.
3. Olinma so'zlar talaffuzi va imlosi.
4. Qo'shma ot. Qo'shma otlari imlosi
5. Miqdor va tartib sonlar, ularning ifodalanishi.
6. Jurnalistika sohasiga oid atamalar.
7. Tasviriyl matn ustida ishlash.
8. Tasviriyl matn yaratish.

Berilgan rasmlar asosida tasviriyl matn yarating.

Adiblar xiyoboni bog'ida



Ona tabiatni asraylik!



Tasviriy matn yaratishda o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

1. Matnni imlo hamda punktuatsion qoidalarga va husnixat talablariga amal qilgan holda yozing.
2. Matnni izchil hamda qiziqarli tarzda bayon qiling, xulosalang.
3. Matnda qo'shma otlardan o'rinli foydalaning.
4. Matnda ibora va tasviriy ifodalardan o'rinli foydalaning.
5. Matnda miqdor va tartib sonlardan foydalaning.

Baholash mezonlari (50 ball)	
1. Savodxonlik (imlo hamda punktuatsiya), husnixat talablarining bajarilganligi	10 ball
Matn imlo hamda punktuatsion xatolarsiz, husnixat talablariga amal qilgan holda yozilgan bo'lsa –	10 – 8 ball
Uch-to'rt o'rinda imlo hamda punktuatsion xatoliklarga yo'l qo'yilgan, husnixat talablariga amal qilingan bo'lsa –	7 – 5 ball
Besh-olti o'rinda imlo hamda punktuatsion xatoliklarga yo'l qo'yilgan, husnixat talablariga amal qilinmagan bo'lsa –	4 – 1 ball
2. Mazmun, izchillik, xulosa	10 ball
Matndagi fikrlar asosli, izchil ifodalangan, qiziqarli xulosalangan bo'lsa–	10 – 8 ball
Matndagi fikrlar asosli, izchil ifodalangan, ammo matn xulosalanmay qolgan bo'lsa –	7 – 5 ball
Matndagi fikrlar izchilligiga putur yetgan, xulosalanmagan bo'lsa –	4 – 1 ball
3. Matnda qo'shma otlardan o'rinli foydala olishi	10 ball
Matn yaratish davomida qo'shma otlardan o'rinli foydalangan, matn mazmuniga mos kelgan bo'lsa –	10 – 8 ball
Matn yaratish davomida qo'shma otlardan ayrim o'rinlarda foydalangan, matn mazmuniga mos kelgan bo'lsa –	7 – 5 ball
Matn yaratish davomida qo'shma otlardan qisman foydalangan, lekin matn mazmuniga mos kelmagan bo'lsa –	4 – 1 ball
4. Matnda ibora va tasviriy ifodalardan o'rinli foydalana olishi	10 ball
Matn yozish davomida ibora va tasviriy ifodalardan o'rinli foydalanib so'z takroriga yo'l qo'ymagan bo'lsa –	10 – 8 ball
Matn yozish davomida ibora va tasviriy ifodalardan foydalangan, ayrim o'rinlarda so'z takroriga yo'l qo'ygan bo'lsa –	7 – 5 ball
Matn yozish davomida ibora va tasviriy ifodalardan ayrim o'rinlarda foydalangan, so'z takroriga yo'l qo'ygan bo'lsa –	4 – 1 ball
5. Matnda miqdor va tartib sonlardan foydalana olishi	10 ball
Matnda miqdor va tartib sonlardan o'rinli foydalanib matn yarata olgan bo'lsa –	10 – 8 ball
Matnda miqdor va tartib sonlardan foydalangan, ammo ayrim o'rinlarda so'zning ma'nosini tushunmay noo'rin qo'llagan bo'lsa –	7 – 5 ball
Matnda miqdor va tartib sonlardan noo'rin qo'llagan yoki deyarli foydalanmagan bo'lsa –	4 – 1 ball
Jami:	50 ball